JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 5 - aprel 78-3-52-Q/23 Paxtakor tuman hokimligi

# 4r35 “Jizzax-Gagarin” avtomobil yo‘lining “Oq buloq” mahalla fuqarolar yig‘ini Oq buloq ko‘chasi bilan kesishmasiga yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish, tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 1-martdagi 41/524-sonli xatini hamda fuqarolarning murojaatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

## QAROR QILAMAN:

1. Tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 1-martdagi 41/524-sonli xati hamda fuqarolarning murojaatlari inobatga olinsin.

2. 4r35 “Jizzax sh.-Paxtakor sh.-Do‘stlik sh.-Gagarin sh.” avtomobil yo‘lining “Oq buloq” mahalla fuqarolar yig‘ini Oq buloq ko‘chasi kesishmasiga 5.16.1 va 5.16.2 yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda 1.14.1 (zebra) piyodalar o‘tish yo‘lagi chizishga ruxsat berilsin.

3. Paxtakor tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (S.Erjigitov)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov) va IIB YHXB (A.Ashurov)larga Paxtakor 4r35 “Jizzax sh.-Paxtakor sh.-Do‘stlik sh.-Gagarin sh.” Avtomobil yo‘lining “Oq buloq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida avtomobillar harakatining

o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi v.b.** **A.Ashurov**